



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ABDULLA ORIPOVNING “JANNATGA YO’L” DOSTONIDAGI OBRAZLARDA XARAKTERNING BADIY IFODASI

Xolliyeva Kamola Panjiyevna

Termiz Davlat Pedagogika Instituti Magistranti

+998994280118

ANNOTATSIYA

O’zbekiston qahramoni, o’zbek xalqining sevimli shoiri Abdulla Oripov o’zining “Jannatga yo’l” dostoni orqali shoir narigi dunyo timsolida jamiyatdagi illatlarni katta mahorat bilan ochib bergan. Shoir yashagan zamon ijodkorni qiynayotgan muammolarni to’g’ridan to’g’ri ochib berishga yo’l qo’ymas edi. Shuning uchun ham muallif eng kichik qahramonlar zimmasiga ham katta g’oyaviy og’irlik tashlagan va ular yo’liqadigan muammlolarga go’zal falsafiy yechimlar topib bera olgan. Ushbu maqolada e’tirof etilgan g’oylarning dostondagi talqini haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar. Abdulla Oripov, “Jannatga yo’l”, badiiy ifoda, xarakter yigit obrazi , psixologik yondashuv

KIRISH

Bizni o’rab turgan olam, hayol va kechinmalarimiz cheksiz va chegarasiz, ularni birma- bir qog’ozga tushurish imkonsiz. Ammo katta bir olamni ma’lum misralarga sig’dira olish ijodkordan yuqori saviya, dunyoqarash va mahorat talab qiladi. Abdulla Oripov haqiqiy ma’noda ana shunday so’zning qudrati va yukini his qila olgan ijodkor. Har bir qo’llayotgan so’zi u xoh ijobiy ma’noda bo’lsin xoh salbiy ma’noda o’quvchi yuragiga chuqur o’rnasha oladi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Endi bevosita xarakter tushunchasi haqida fikr yuritsak, uzoq vaqt davomida xarakter va obraz atamalariga yaxlit tushuncha sifatida qaralgan.Xarakter tushunchasi ilk bor yunon adabiyotida qo’llanilganligi haqida ma’lumotlar bor. “...Shoirlar ishtirokchilarning xarakterlarini tasvirlash uchun ularni asarga olib kirishmaydi, — deb yozgan edi Aristotel "She’riyat san’ati to‘g’risida"gi risolasida, — balki ularning xattiharakatlari orqali xarakterlarini ham (asar doirasiga) jalb etishadi". Antik davr tragediyasida ham inson obrazi xarakter emas, balki voqeа asar



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

g‘oyasini ifodalab kelgan va muhim badiiy obraz xisoblangan; personajlar asardagi muayyan badiiy vaziyatda o‘ynagan roli bilan bir-biridan farqlangan”, deya keltirib o’tiladi, adabiy manbalarda. Biroq o’sha davrdagi xarakter tushunchasi hozirgi vaqtdagi qiyofasidan tubdan farq qiladi. Maqsad, faqatgina ma’lum bir fe’l-atvordagi inson qiyofasini yaratish emas, balki xulq- atvorning muayyan ko’rinishlaridan forig‘ bo‘lgan, o’zining butun borlig’i bilan umuminsoniy hodisaga aylana olgan qiyofani bera olish. Ayni shu joyda adabiyotning ham tub mohiyati anglashiladi, ya’ni umuminsoniy g‘oyalar uchun xizmat qilish. Mualli tanlagan har bir qahramon obrazga aylana olishi mumkin, ammo har bir obraz xarakterga aylana olmaydi. Tadqiqod ishimiz nuqtayi nazaridan Abdulla Oripov tanlagan Yigit qiyofasi xarakterga aylana olganmi?

Dostonning boshlanish nuqtasidan uning yakuniga qadar juda murakkab ruhiy holat va kechinmalar egasi sifatida ta’riflangan Yigit chindan ham ana shunday murakkab xarakter egasi ekanligini voqealar rivojida ko’rishimiz mumkin. Uning fe’l-atvoridagi ikki jihat xarakterli, ya’ni, u voqelar rivojidan boshlab, tushkunlik,adolatsizlikka qarshi tura olmagan e’tiqod egasi va irodasiz, bo’ysunuvchan qahramon sifatida gavdalasa, muallif ana shu birlamchi aldamchi xarakterlar vositasida uning har qanday sinov va qiyinchiklardan cho‘chimaydigan metin iroda egasi ekaligiga ko‘p bor ishora qiladi.

Bu gaplarni me’yоридан oshirdingiz sal,

Eshitganmiz bundaqangi kinoyalarni.

Gunohimga iqrorman men, tonmayman tugal,

Yuzga solmang lekin har xil rivoyalarni.

Mayli, do’zax tublarida kuyib kul bo’lay,

Mayli, qaynoq daryolarda oqsin suyagim...

Ko’zlarimdan qon, yosh oqsin, zardobga to’lay,

Faqat bordir Ollohimdan bitta tilagim.

Shu o’rinda adabiyotda xarakter masalasi psixologik yondashuvni ham taqazo qiladi. Sababi, Adabiyotning ham, psixologiyaning ham bosh mavzusi –inson. Qahramon xarakterini baholash, uning tashqi ko’rinishi yoki bevosita tasodify hodisalar orqali emas, balki ongli ravishda qahramonning hatti-hrakatlari vositasida tanlov imkoniyati orqali ochib beriladi, ya’ni qahramon tomonidan qabul qilingan qarorlar bevosita uning xarakterini belgilaydi. Shu ma’noda Yigit tabiatidagi adolatga tashnalik, nohaqliklarga qarshi cheksiz nafrat va kuchli insoniylik va mehr-muhabbat tuyg’usi uni baxtli xotima sari yetaklab borganligiga guvoh



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

bo'lamiz.Dastlab uning gunoh va savoblari hisob-kitob qilinganda, unga do'zax buyuriladi. Kimdir ehtimol bunday qismatdan daxshatga tushib, o'zini Tarozibonning oyoqlari ostiga otib, shavqat so'rashi mumkindir, ammo Yigit bunday qilmaydi. Yuqoridagi misralardan ham ko'rishimiz mumkinki, Yigit o'quvchi nazarida taqdirga tan bergandek ko'rinsa-da, aslida u ana shu itoati orqali o'z taqdirini inkor qilmoqda. Tarozibon uni arosat dashtiga jo'natishi va ota-onasi diydoriga yetishishi, o'zi uchun kerak bo'lgan ikki paysa savobni ota-onasidan so'rashi kerakligini aytganda, Yigit ikkinchi marta uni inkor qiladi. Onasi huzurida qanchalik uning diydoriga tashna bo'lmasin, niqobini yechmaydi va onasiga kimligini bildirmaydi. Chunki, u yaxshi anglaydiki, onasi hech ikkilanmay, uning saodati uchun o'z farog'atidan voz kechadi. Shuning uchun ham u kuchli bir iztirob bilan onasiga kimligini aytmaydi. Shu o'rinda ham muallif qahramoniga tanlov imkoniyatini beradi. Xudbin va irodasi zaif farzand bo'lganida ehtimol, ota-onasini Jannatidan mahrum qilgan bo'lar edi. Lekin Abdulla Oripov tanlagan qahramon bunday yo'l tuta olmaydi. Ana shu o'zgachalik, muallif orzu qilgan komil inson qiyofasi Yigitning va dostonning xarakterini belgilaydi. Xarakter asarning asosiy unsurlaridan bo'lib, u o'quvchi va asarni bog'laydi, qahramonga yaqinlashtiradi. Ishimiz doirasida yana bir savol tug'iladi, ijodkor asar jonli va hayotiy bo'lishi uchun qahramonlar xarakterini shunchaki mavjud voqelikdan ko'chirma qiladimi, axir har bir adabiy asar zamirida ko'pdir, kamdir, hayotiy haqiqatlar aks etadiku. Abdulla Oripov bu savolga shoirona yechim bera olgan. U bosh qahramoniga o'ziga xos fe'l-atvor berish bilan birga, unga shoirona qalb, shoirona ruh singdira olgan. Bu esa qahramonlar xarakterini badiiy jihatdan sayqallanishiga olib kelgan.

XULOSA

"Adabiyot san'at hodisasi, insonning ruhiy-psixologik faoliyatining asosiy sohasi sifatida olamni obrazli in'ikosi o'laroq yashashda davom etadi. Faqat u endi davrning eng yangi va ilg'or g'oyalari, milliy g'oyalar bilan boyigan, eng muhim esa, badiiy jihatdan juda yuksak darajada turadigan adabiyot bo'lmos'i lozim.¹

Yuqoridagi ta'rifni o'qiydigan bo'lsak, adabiy asar faqatgina hayotning bir parchasi emas, insonning ruhiy-psixologik faoliyati, dunyoqarashi asosi, olamni obrazli tasavvur etish vositasi ekanligiga guvoh bo'lamiz. Davr ijodkorga mavzular,

¹ Sharafiddinov O.-Ijodni anglash baxti.-Toshkent: Sharq,2004,192-bet.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

tuyg'ular berishi mumkin. Lekin hamma gap bu niyatni qay taxlitda ifodalay bilishda, ro'yobga chiqarishda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Oripov. Tanlangan asarlar. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T.,2019.
2. D.Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. "O'qituvchi" nashriyoti. T., 2018
3. O.Sharafiddinov.Ijodni anglash baxti. "Sharq" nashriyoti. T., 2004.